


# Qushtoron (Qiziltasma) O'simligining Kimyoviy Tarkibi va Xalq Tabobatida Qo'llanilishi

*Diyoraxon Isomiddin qizi Toychiyeva<sup>1</sup>*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada qushtoron o'simligining tashqi ko'rinshi va tarkibida uchrovchi kimyoviy moddalar hamda qushtoron o'simligi asosida tayyorlangan damlamalar, ularni xalq tabobatida qo'llanilishi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** qushtoron (qiziltasma), bo'g'im kasalliklari, zaharlanish, zotiljam, bronxit, qon bosimi.

Qushtoron (qiziltasma). Lotincha nomi Polygonum aviculare – torondoshlar oilasiga mansub bo'lgan bir yillik begona o't. Poyasi yotib, ba'zan esa ko'tarilib o'suvchi, bo'yи 25-60 smgacha yetuvchi o'simlik. Poyasi sershox, bo'yи barobar barg bilan qoplangan. Barglari ellipssimon, nashtarsimon, kalta bandli bo'lib, gullari 1-5 ta dan barg qo'ltig'ida joylashgan, gulqo'rg'oni oddiy, cheti qizg'ish yoki oqish rangga bo'yalgan 5 ta gultojbargdan iborat. Mevasi 3 qirrali yong'oqcha. Urug'i pishib yetilgandan keyin ham gulqo'rg'oni qo'ng'ir-qizil o'ralgancha qoladi. Urug'ining ko'rinishi mayda, qora, uch qirrali. Ildizli, oq ildiz bo'lib, tuproqqa 20-30 sm gacha kirib borgan. Qiziltasma o'ti barcha lalmikor va sug'oriladigan yerdagi g'alla, ayniqsa kuzgi don ekinlari orasida ko'plab uchraydi. Ushbu o'simlik tarkibida askorbin kislotasi, K vitamini, glikozid avikulyarin, kversetin, giperozid, karotin va oshlovchi kimyoviy moddalar mavjud.



## Glikozid avikulyarin

Qushtoron (qiziltasma) o'simligi dorivor xususiyatga ega bo'lib, o'simlikning yer ustki qismi gullah davrida o'rib olinadi va salqin yerda quritiladi. Quritilgan yer ustki qismlaridan damlama va preparatlar tayyorlanadi.



**1-rasm. Qushtoron (qiziltasma) o'tining tashqi ko'rinishi.**

Qushtoron o'simligi xalq tabobatida quyidagi ko'plab kasalliklarni oldini olishda va davolashda qo'llaniladi:

<sup>1</sup> Andijon davlat universiteti, tabiiy fanlar fakulteti, Kimyo ta'lif yo'naliishi 3-bosqich 302- guruh talabasi.

Tana a'zolarining turli qismlarida tuz to'planishi ko'plab insonlarda uchraydi, ayniqsa, markaziy qon tomirlar, yurak, miya, aorta va buyraklarda to'planishi hayot uchun xavflidir. Bo'gim kasalliklarini va tanadagi tuzlarni bartaraf etishda aynan, qushtoron (qiziltasma) o'tidan foydalanish yaxshi samara beradi. Buning uchun qushtoron o'tidan 300gr olib, uning ustiga 5 litr qaynoq suv quyiladi va 2 soat damlab qo'yiladi. So'ngra suzib olinib, oyoq-qo'llar vanna qilinadi.

Jigar kasalliklari va jigar sirrozini davolashda qushtoron o'tidan 500gr olib, 4 litr suvda 15 daqiqa mil-mil qaynatiladi, 10 kun 3 mahaldan parhez bilan ichilsa, jigar buyrak va qovuq kasalliklarida yaxshi samara beradi.

Inson organizmida ovqatdan, turli dori-darmonlardan va har xil kimyoviy moddalardan zaharlanish holatlari ko'plab uchrab turadi. Bunday holatlarda qushtoron o'tidan foydalanib ijobjiy natijaga erishish mumkin. Buning uchun qushtoron(qiziltasma) o'tidan 3 osh qoshiq olib, sirli idishga solinadi va ustiga 3 stakan suv quyiladi, past olovda yarim soat og'zi yopiq holda qaynatiladi, qaynab bo'lgach yana yarim soat davomida damlab qo'yiladi. Ushbu damlama ovqatdan zaharlanish holatlarda qo'llaniladi.

Zotiljam va opka yallig'lanishlarida qushtoron o'tidan 1 osh qoshiq olib, 10 daqiqa suv bug'ida qaynatiladi va 2 soat damlab qo'yiladi. Ushbu damlama suzib olinib, kuniga 3-4 qoshiqdan o'tkir yo'talda, sil, bronxit va zotiljamda kasalliklarida yaxshi samara beradi

Qushtoroning 500gr ini 4 litr suvda 15 daqida past olovda qaynatib, 15 kun 3 mahal 3 osh qoshiqdan och holda parhez bilan ichilsa, ich ketishi, ichak kasalliklarini va yaralarinini davolashda foyda qiladi hamda ushbu damlamani 10 kun 3 mahal 50 gr dan ichilishi tanaga quvvat berib, issiqni tushuradi, siydikni haydaydi, gijjalarni osonlikcha tushurib, qon oqishini to'xtatadi. Damlamani 15 kun davomida 3 mahal 2 osh qoshiqdan ichishlik natijasida esa qon bosimini bartaraf etadi. Qushtoroning preparatlari akusherlik va ginekologik amaliyotida qon to'xtatuvchi vosita sifatida foydalaniladi.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, ushbu dorivor xususiyatga ega bo'lgan qushtoron ( qiziltasma ) o'tidan turli poroshok va damlamalar tayyorlash natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan bo'gim kasalliklari, turli kimyoviy moddalardan zaharlanish holatlarda va qon bosimi kabi nohush holatlarni davolashda va oldini olishda qo'llash orqali istalgan natijaga etishish mumkin. Qushtoron o'tidan damlamalar tayyorlashda va ularni iste'mol qilishda belgilangan meyorlarga amal qilish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Асқаров И.Р. Сирли табобат. – Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 1084-бет.
2. Асқаров И.Р. Tabobat qomusi. Мумтоз сўз. –Т. –2019.-1590 б.
3. Qushtoron o'simligining er ustki qismi - - Курс лекций по фармакогнозии с основами биохимии лекарственных растений,... <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-217309-1.html?page=20>
4. Abu Ali Ibn Sino. Tibbiy risolalar. Bir tomlik. –T.: “Fan”, 1987.